

SHAXSNING MANAVIY-AXLOQIY RIVOJLANISH JARAYONINING MILLATLARARO MULOQOT MADANIYATINI SHAKILLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI

Atamurodov Dilshod Olimboy o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotasiya:

Ushbu maqolada bo'lajak o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishda ma'naviy-axloqiy xarakter jihatlarini anglash masalalariga e'tibor qaratilgan. Millatlararo muloqot madaniyatiga shaxsning manaviy-axloqiy rivojlanish jarayoni sifatida yondashish tajribasiga ega bo'lish imkoniyatlari haqida ham fikr yuritiladi. Ushbu maqola o'qituvchilarda madaniyatlararo kommunikatsiyaga oid kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan qadriyatlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Tayanch so'zlar: madaniy muhit, refleksiyalash, kompetentlikni rivojlantirish, baynalminal madaniyat, axloqiy ong, ijtimoiy-pedagogik vaziyat, pedagogik ta'lim, ma'naviy-ma'rifiy tadbir.

Turli millat vakillari orasidagi o'zaro munosabatlar ma'naviy-axloqiy xarakterga ega. Bunday munosabatlar shaxslararo va guruhlararo munosabat darajasiga ega. Shaxsiy darajada mazkur munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi yaqqol namoyon bo'ladi.

Millatlararo muloqot madaniyati insonning shaxsiy sifati bo'lib, har doim mutaxassislarining e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Millatlararo muloqot madaniyati shaxsning turli millat va irq vakillari bo'lgan insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish darajasini ifodalovchi ma'naviy hodisadir. Millatlararo muloqot natijasida alohida o'ziga xoslikka ega bo'lgan insonlarga nisbatan tolerant va xayrixohlikka asoslangan munosabat namoyon bo'ladi. Bunday xayrixohlik boshqa millat vakillarining an'analari, qadriyatlari, tarixi va milliy yutuqlariga nisbatan hurmat qilgan qarashda o'z ifodasini topadi. Millatlararo muloqot madaniyati axloqiy-ma'naviy hamda ko'p millatli muhitga mos bo'lgan me'yorlarga amal qilishni taqozo etadi. Shunga ko'ra millatlararo muloqot madaniyati boshqa millat vakillarining o'ziga xosligini tan olish va qabul qilish hamda unga mos tarzda o'z xatti-harakatlarini amalga oshirishni talab qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga tayyorlashda uning gnoseologik jihatlariga ham e'tibor qaratish zaruriyati ham mavjud. Boshqa etnomadaniyat vakillari haqidagi bilimlar shaxsning dunyoqarashini rivojlantirish bilan bir qatorda, millatlararo muloqot jarayonida vujudga keladigan nohush holatlarni bartaraf etish ko'nikmasini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Bu o'z navbatida, bo'lajak

o'qituvchilarning etmadaniy qadriyatlar haqidagi bilimlarni o'zlashtirishlari zarurligini ko'rsatadi. Bunday qadriyatlar bo'lajak o'qituvchilarda madaniyatlararo kommunikatsiyaga oid kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Chunki madaniyatlararo kompetentlik integrativ hodisa bo'lib, turli madaniyatlarga oid bilimlarni uyg'un tarzda o'zlashtirish ehtiyojini vujudga keltiradi.

Millatlararo muloqot madaniyati turli millat vakillari orasidagi munosabatni ifodalaydi. U mustaqillik xarakteriga ega. Pedagogik nuqtai nazaridan shaxsning millatlararo muloqot madaniyati uning umumiy madaniyatini ifodalovchi hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda shaxsning millatlararo muloqot madaniyati madaniy muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu jihatdan, o'qituvchi millatlararo muloqot madaniyati va tolerantligi alohida imkoniyatlarga ega. Chunki millatlararo muloqot madaniyati ko'p funksiyali hodisa hisoblanadi. Birinchidan, millatlararo muloqot madaniyati insonparvarlikka asoslangan axloqqa oid bilimlar, unga amal qilish me'yorlari, prinsiplarini o'zida mujassamlashtiradi. Ikkinchidan, inson faoliyatida kommunikativ sifatlarning namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, o'z-o'zini anglash, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish, ularning his-tuyg'ularini tushunish, hamdardlik bildirish, refleksiyalash, o'z-o'zini mos tarzda baholash, birgaikda faoliyat ko'rsatish, kechinmalariga sherik bo'lish kabilar shular jumlasidandir.

Millatlararo muloqot madaniyatining o'ziga xos jihatlari quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- millatlararo muloqot madaniyatini ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida tushunish natijasida unga oid bilimlarni interpretatsiyalashtirgan holda o'quvchilarga ushbu yo'nalishdagi ijtimoiy tajribani taqdim etish usullari va metodlarini o'zlashtirish.
- mazkur ijtimoiy tajriba turli millat vakillarining ijtimoiy faoliyati jarayonida shakllangan va to'plangan bilimlar va faoliyat usullarini o'z ichiga oladi.

Millatlararo muloqot madaniyatiga shaxsning manaviy-axloqiy rivojlanish jarayoni sifatida yondashish tajribasiga ega bo'lish natijasida o'quvchilarda o'ziga xos bir qator sifatlar shakllanadi. O'quvchilarda tolerantlik sifatlarini shakllantirish orqali ularni madaniyatlararo muloqotga jalb etish imkoniyatlari kengayadi.

Chunki bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini tayyorlash murakkab pedagogik-psixologik jarayon hisoblanadi. Ushbu masalaning yechimi zamonaviy ta'lim-tarbiya amliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston hududidagi ko'p millatli ta'lim muassasalarida o'quvchilar orasida shaxslararo aloqani jadallashtirish o'qituvchining muhim vazifalari sirasiga kiradi.

O'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish tarbiyaviy jarayonlarning asosiy maqsadlaridan biriga aylanishi zarurligini ijtimoiy-siyosiy vaziyat talab qilmoqda. Millatlararo muloqot madaniyatining asosiy komponenti tolerantlik bilan bir qatorda fidoiylilikni ham ko'rsatib o'tish mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga tayyorlash muammosining pedagogik tahlili uning metodik jihatlarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga tayyorlash jarayonida talabalarning axloqiy madaniyati hamda ijtimoiy axloqini rivojlantirish nazarda tutiladi. Buning uchun talabalarga millatlararo muloqot madaniyatiga oid tarixiy tajribalarni taqdim etish, tarbiyaning madaniy-tarixiy imkoniyatlaridan foydalanish usullarini o'rgatish, o'quvchilarga etnografik bilimlar va ma'lumotlarni taqdim etish kompetensiyasini shakllantirish, millatlararo muloqot jarayonining kommunikativ vositasi sifatida o'zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish, bu jarayonda o'zbek tilining tutgan o'rni va mavqei haqida talabalarda aniq tasavvur hosil qilish, talabalarda ikki tillilik va ko'p tillilik ko'nikmalarini rivojlantirish, boshqa millatga xos bo'lgan xususiyatlarni tushunishda tolerantlik sifatlarini namoyon etish tajribasini hosil etish, ma'naviy-axloqiy an'analarga murojaat qilish kompetensiyasini shakllantirish, baynalminal madaniyatga ega bo'lishlariga erishish, o'quvchilarni baynalminal ruhda tarbiyalash metodikalarini o'zlashtirishlarini ta'minlash, o'quvchilarga shaxsiy namuna ko'rsata olish kompetensiyasiga ega bo'lishlariga erishish kabilar nazarda tutilishi lozim.

Biz pedagogik jarayonlarda aksariyat hollarda millatlararo muloqot tushunchasiga qayta-qayta murojaat qilamiz. Millatlararo kompetentlik atamasi ham bugungi kunda pedagogik terminologiyada o'z o'rniga ega bo'lmoqda. Madaniyatlararo kompetentlik tushunchasi o'ziga xos tarkibiy tuzulishga ega. Millatlararo muloqot madaniyati va madaniyatlararo kompetentlik tushunchalari o'zaro bir-biridan farqlanadi. Chunki millatlararo kompetentlik dialoglar madaniyati sohasida zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni ko'rsatadi. Madaniyatlararo kompetensiyaga ega bo'lgan har bir shaxs, shu jumladan, bo'lajak o'qituvchilar ham o'z xalqi ham boshqa xalqlarning madaniyatiga oid bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni talab etiladi. Atamalardagi turli tumanlik millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish zarurligini inkor etmaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq:

- bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga tayyorlash pedagogika fanining o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi;
- chunki umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy-pedagogik vaziyat bo'lajak o'qituvchilarda tarbiyaning ushbu yo'nalishiga oid zarur bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutmoqda. O'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy jarayonlarni amalga oshirishda o'qituvchida ushbu yo'nalishdagi zarur bilimlar va kompetensiyalarning mavjudligi talab etiladi;

- bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash ham ushbu yo'nalishda samaradorlikni ta'minlash imkonini beradi;

- shaxsning tayanch madaniyati millatlararo muloqot madaniyatining shakllanishiga asos bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga tayyorlash jarayoni samadorligini asosiy sharti, ularda do'stona munosabatlarga asoslangan o'quvchilar jamoasini shakllantirishga oid kompetensiyalarni tarkib toptirishdan iborat. Turli millat va dinga mansub bo'lgan o'quvchilar orasida o'zaro tenglik, xayrixohlikka asoslangan munosabatni shakllantirish o'qituvchining muhim vazifalariga sirasiga kiradi. Bunday yakdillik butun o'quv – tarbiya jarayonida yaqqol namoyon bo'lishi kerak. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilar umumiy o'rta ta'lim maktablarida madaniyatlararo muloqot va xalqlar do'stligi ruhida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish tajribasini ham o'zlashtirishlari talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rashidov O. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik: O'quv qo'llanma / — Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022. – 200 b
2. Qaxxarova M. Social-spiritual environment of society and spiritual ideal // Oriental Journal of Social Sciences. 2021, 32 p.
3. Navro'zova G., Zoirov E., Yunusova G. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. Toshkent: falsafa va huquq, 2006.
4. Немкова Е.М. Развитие культуры межнациональных отношений у школьников: Методическое пособие / Е.М.Немкова. – Ульяновск: ИПК ПРО, 2003. – 60 с.
5. Нигматов З.Г. Этнопедагогические культуры и регионализация воспитания / З.Г. Нигматов//Педагогика. 1996. - №6. – с.49-50.